MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 1-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

DUTOR SAN’ATIDA USTOZ-SHOGIRD AN’ANASI NOMODDIY MADANIY MEROSNI UZATISH MEXANIZMI SIFATIDA

Shukurjonova Xusnora Farhod qizi,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi, Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
xusnorashukurjonova8@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek dutor san’atidagi ustoz-shogird an’anasi nomoddiy madaniy merosni avloddan avlodga uzatishning asosiy mexanizmi sifatida madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Musiqashunoslik va cholg‘ushunoslik manbalari asosida “ustoz” tushunchasining ma’naviy va amaliy mazmuni, shogirdlikka qabul qilish tartibi, ta’lim bosqichlari, intizom qoidalari hamda shogirdlikni yakunlovchi “og‘zaki diplom” marosimi yoritiladi. Ayollar dutor ijrochiligi va dutorsozlikdagi meros uzatish xususiyatlari alohida ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy sharoitda ommaviy axborot vositalari, ovoz yozish texnikasi va jamoaviy ta’lim shakllari ta’sirida an’anaviy uzatish mexanizmida yuz berayotgan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ustoz-shogird an’anasini faqat pedagogik usul emas, balki bilim, ko‘nikma, qadriyat va ijtimoiy munosabatlarni birgalikda uzatuvchi yaxlit madaniy institut sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *dutor san’ati, ustoz-shogird an’anasi, nomoddiy madaniy meros, merosni uzatish, og‘zaki an’ana, shogirdlik, “og‘zaki diplom”, ayollar ijrochiligi, dutorsozlik.*

Аннотация: *В статье с позиций культурологии анализируется традиция «устоз-шогирд» (мастер–ученик) в узбекском искусстве дутора как основной механизм передачи нематериального культурного наследия от поколения к поколению. На основе музыковедческих и органологических источников раскрываются духовное и практическое содержание понятия «устоз», порядок принятия в ученики, этапы обучения, правила дисциплины, а также обряд «устного диплома», завершавший период ученичества. Отдельно рассматриваются особенности передачи наследия в женском исполнительстве на дуторе и в изготовлении дутора. Анализируются изменения традиционного механизма передачи под влиянием средств массовой информации, звукозаписи и коллективных форм обучения. Результаты исследования показывают необходимость рассматривать традицию «устоз-шогирд» не только как педагогический метод, но и как целостный культурный институт, передающий знания, навыки, ценности и социальные отношения в их единстве.*

Ключевые слова: *искусство дутора, традиция «устоз-шогирд», нематериальное культурное наследие, передача наследия, устная традиция, ученичество, «устный диплом», женское исполнительство, изготовление дутора.*

Abstract: *The article analyses the master–apprentice (ustoz–shogird) tradition in Uzbek dutor art as the principal mechanism for transmitting intangible cultural heritage from generation to generation, from the perspective of cultural studies. Drawing on musicological and organological sources, it examines the spiritual and practical meaning of the concept of “ustoz” (master), the admission of apprentices, the stages of training, the rules of discipline, and the “oral diploma” ceremony that concluded the apprenticeship. The specific features of transmission in women’s dutor performance and in dutor making are considered separately. The article also analyses the changes in*

the traditional transmission mechanism brought about by mass media, sound recording and collective forms of training. The findings show that the master–apprentice tradition should be regarded not merely as a teaching method, but as an integral cultural institution that transmits knowledge, skills, values and social relations together.

Keywords: *dutor art, master–apprentice tradition, intangible cultural heritage, transmission of heritage, oral tradition, apprenticeship, "oral diploma", women's performance, dutor making.*

Nomoddiy madaniy meros moddiy yodgorliklardan farqli ravishda faqat uni tashuvchi insonlar orqali yashaydi va saqlanadi. YUNESKOning 2003-yilgi Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiyasida bunday meros avloddan avlodga o‘tib, jamoalar tomonidan doimiy ravishda qayta yaratilishi ta’kidlanadi, merosni muhofaza qilish chora-tadbirlari qatorida esa uni, ayniqsa, rasmiy va norasmiy ta’lim orqali uzatish alohida ko‘rsatiladi. Demak, merosning hayotiyligi ko‘p jihatdan uni uzatish mexanizmlarining (ya’ni yo‘l va usullarining) qanchalik barqaror ishlashiga bog‘liq.

Madaniyatshunoslikda madaniyatning muhim xususiyati sifatida uning tug‘ma (irsiy) yo‘l bilan emas, balki jamiyatda o‘rganish orqali uzatilishi qayd etiladi. Y.A.Hudoyqulov ta’kidlaganidek, madaniyat "an’analar, ramzlar, til, bevosita taqlid qilish va amaliy o‘rganish orqali avloddan-avlodga singdiriladi". O‘zbek an’anaviy musiqa madaniyatida bunday uzatishning eng muhim shakli ustoz-shogird an’anasi bo‘lib, u asrlar davomida og‘zaki an’anadagi musiqiy merosning saqlanishi va rivojlanishini ta’minlab kelgan.

Dutor ijrochiligi, repertuari va tarixi musiqashunoslikda bir qator tadqiqotlarda o‘rganilgan. J.Rasultoyevning "O‘zbek dutor ijrochiligi" kitobida esa an’anaviy dutor ijrochiligidagi ustoz-shogird tizimi alohida bob sifatida, asosan, ijrochilikka o‘rgatish nuqtayi nazaridan yoritilgan. Biroq ushbu an’anani nomoddiy madaniy merosni uzatish mexanizmi, ya’ni bilim va ko‘nikmalar bilan birga qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar va ramziy ma’nolarni ham uzatuvchi madaniy institut (jamiyatda barqaror amal qiladigan tizim) sifatida madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish masalasi yetarli yoritilmagan.

Ushbu maqolada dutor san’atidagi ustoz-shogird an’anasining tarkibiy qismlari, bosqichlari va marosim shakllarini aniqlash, uni nomoddiy madaniy merosni uzatish mexanizmi sifatida baholash hamda zamonaviy sharoitda bu mexanizmda yuz berayotgan o‘zgarishlarni yoritish hisoblanadi.

Tadqiqotda tarixiy-madaniy tahlil, an’anani tarkibiy qismlari va ularning vazifalari bo‘yicha o‘rganish hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida O.Matyoqubovning "Maqomot", J.Rasultoyevning "O‘zbek dutor ijrochiligi", A.Liviyevning "O‘zbek milliy cholg‘usozlik tarixi" asarlari hamda ularda keltirilgan ijrochi va ustalarning xotiralari tahlil qilindi. Ushbu manbalardagi ma’lumotlar madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan qayta tahlil qilinib, ustoz-shogird an’anasining ijtimoiy-madaniy vazifalari aniqlandi.

O‘zbek musiqa madaniyatida "ustoz" so‘zi oddiy o‘qituvchi ma’nosidan ancha keng mazmunga ega. O.Matyoqubovning fikricha, sozandalik hunarining eng yuqori darajasi "ustoz" degan faxriy daraja bilan belgilanadi va bu tushunchaning ikki jihati — ma’naviy

va amaliy jihatlari mavjud. Ma’naviy tarafdan ustoz har bir hunarning e’tiqod ramzi bo‘lib, uni muqaddas tutgan inson kasb-koridan baraka topadi, amaliy nuqtayi nazardan esa ustoz — o‘z kasbining sir-asrorlarini puxta egallagan va hunar o‘zlashtirishni oliy darajaga yetkazgan komil inson. Xalq orasidagi “Ustoz otangdan ulug‘dir” degan naql ham ustozning jamiyatdagi yuksak maqomini ko‘rsatadi.

J.Rasultoyev ham musiqa madaniyatimizda sof ma’nodagi muallim ustozning o‘zi ekanini, u ayni paytda ham murabbiy, ham sozandalik san’atini to‘la egallagan shaxs hisoblanishini ta’kidlaydi . Shu ma’noda ustoz shogirdga faqat ijro texnikasini emas, balki kasb odobi, xulq-atvor me’yorlari va hayotiy tajribani ham uzatadi. Rasultoyevning qayd etishicha, shogird ustoz oilasi muhitiga ham yaqin bo‘lib, ayrim hollarda hatto uning a’zosiga aylanadi, ustozining ma’naviy olamiga yaqinlashib, san’at sohasiga doir barcha nozik did va fazilatlarini asta-sekin o‘ziga singdira boradi.

Ustoz-shogird munosabatlarining yana bir muhim jihati — kasb sirlarining tanlab uzatilishidir. O.Matyoqubovning yozishicha, o‘zlashtirilgan san’at sirlarini faqat aziz farzandlar va eng sadoqatli shogirdlar bilan baham ko‘rish mumkin bo‘lgan, hunar sir-asrorlarini begona kishilarga yoki nomaqbul shogirdlarga ravo ko‘rish gunoh hisoblangan; shu sababli ustoz-shogird zanjirida oilaviy an’analar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan . Bu holat ustoz-shogird an’anasining shaxsiy ishonchga asoslangan ijtimoiy tizim ekanini ko‘rsatadi: bilim ochiq tarqatilmaydi, balki sinovdan o‘tgan, sadoqati isbotlangan shogirdga meros sifatida topshiriladi.

An’anaviy tizimda shogirdlik ota-ona yoki yaqin qarindoshning tashabbusi bilan boshlangan. J.Rasultoyevning ma’lumotlariga ko‘ra, dutor chalishga ishtiyoqi uyg‘ongan, qobiliyatli bolani ilgarilari otasi yoki biror yaqin qarindoshi ustoz oldiga yetaklab borgan. Ustoz o‘zaro suhbatdan so‘ng bolaning qobiliyatini sinash maqsadida uning dutor pardalarini bosib, dastlabki tovushlarni hosil qilishini kuzatgan va shundan keyingina uni shogirdlikka loyiq deb bilgan.

Rasultoyev dutor chalishga o‘rgatish jarayonini ikki bosqichga ajratadi: birinchisi - mustaqil kuzatgan holda ko‘rish-eshitish orqali anglash, ikkinchisi - ko‘rish-eshitish yordamida maxsus o‘rganish. Birinchi bosqich ilgarilari to‘ylarda yoki, asosan, erkaklarning “tukma”, “gap-gashtak”, “ziyofat”, “o‘tirishma”, “mehmonxona bazm” kabi yig‘inlarida kechgan. Bu bosqichda shogirdning qo‘lida cholg‘u bo‘lmaydi: u faqat kuzatadi va ohanglarni tinglab boradi, ustozning chalishini kuzatar ekan, kuy bilan birga cholg‘uning tuzilishi va shaklini, musiqiy tovushning barcha elementlarini anglab oladi.

Bu holat madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega: shogird musiqani uning ijtimoiy muhitidan ajratilgan holda emas, balki u yashaydigan tabiiy muhit — davra, bazm va marosimlar ichida o‘zlashtiradi. Boshqacha aytganda, musiqiy bilim bilan birga uning ijtimoiy vazifasi, ijro odobi va tinglovchi bilan munosabat qoidalari ham birgalikda uzatiladi.

Ikkinchi bosqichda ta’lim qat’iy tartib asosida olib borilgan. Rasultoyev intizomni an’anaviy xalq pedagogikasining o‘zgarmas, qat’iy qonuni sifatida baholaydi: unga rioya qilmaslik jiddiy nuqson sanalgan. Mashg‘ulotlar, asosan, yilning uch mavsumida asosiy ishlardan so‘ng kechki paytlarda o‘tkazilgan, qish kunlarida esa ustozning sharoitiga qarab uning uyida o‘tkazish belgilangan. Ta’lim cholg‘uni to‘g‘ri ushlash va o‘tirish holatidan

boshlangan: dutorchilarning aksariyati «chordona qurib» o‘tirgan, ustoz esa bu holatni puxta o‘zlashtirgan shogirdning diqqatini cholg‘u sozining asosiy qismlarini bilib olishga qaratgan .

Ustoz ta’limida shogirdning ijodiy mustaqilligini shakllantirish ham muhim o‘rin tutgan. Rasultoyevning ta’kidlashicha, ustozning eng asosiy vazifalaridan biri shogirdning o‘z ijrosi xususiyatini to‘la anglay bilishi, o‘z ijrochilik qobiliyatiga tanqidiy baho bera olishi va nuqsonlarini payqay bilishiga erishishdir . Shu bilan birga, mashg‘ulotlarga beparvo qaragan shogirdga nisbatan turlicha jazo va tanbehlar berish ham rasm bo‘lgan. Dutorchilar orasida “Dutor chalish uchun dutorchida qalb bo‘lishi kerak” degan qadimiy naql mavjud. Bu naql ijrochilik mahorati texnik ko‘nikma bilan cheklanmasligini, u ma’naviy yetuklikni ham talab qilishini anglatadi.

O.Matyoqubov sozandaning yetuklikka intilishida uchta bosqichni ajratadi: birinchisi - biron-bir yetuk san’atkor, ustozning izidan ergashish, uning dasturi (kuy va ashulalari) va uslubini o‘zlashtirish; ikkinchisi — bilim va malakalarni kengaytirish, o‘zga maktab vakillarining ijodidan bahramand bo‘lish; uchinchisi — erishilgan bilim va tajribalar asosida o‘z uslubini shakllantirish. Olimning ta’kidlashicha, ana shu murakkab ijodiy jarayonda o‘z yo‘lini topishda ustozning ahamiyati eng muhim tayanch bo‘lib xizmat qiladi; “Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar” degan maqol bu hikmatni aniq va lo‘nda ifodalaydi.

Ushbu bosqichlar ustoz-shogird an’anasining merosni o‘zgarishsiz takrorlashga emas, balki an’anaga tayangan holda ijodiy yangilanishga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi. Matyoqubovning fikricha, maqom ijrochilarining asrlar davomida shakllangan maktab va uslublari zaminida yangi oqimlar paydo bo‘ladi, bu yangiliklar ham silsilaga aylanib, maqom an’analarining avloddan avlodga o‘tishi uzluksiz davom etaveradi . Bu xulosa Konvensiyada qayd etilgan nomoddiy merosning jamoalar tomonidan doimiy ravishda qayta yaratilishi haqidagi qoidaga to‘la mos keladi.

Ustoz-shogird an’anasining marosim bilan bog‘liq jihati, ayniqsa, shogirdlik davrining yakunlanishida yaqqol namoyon bo‘ladi. J.Rasultoyevning yozishicha, yaqin yillargacha ustoz ta’limini to‘la o‘zlashtirib, mustaqil ijroga qadam qo‘ygan shogirdga “og‘zaki diplom” topshirish bilan shogirdlik davri tugallangan. Bunda ustoz ko‘rsatmasi bilan shogird xonadoniga atoqli ijrochilar, musiqani nozik tushunadigan ixlosmandlar taklif qilinib, dasturxon bezalgan. Ushbu bayramona marosimda shogird ustozidan o‘rgangan kuylarni mahorat bilan ijro etib, o‘z qobiliyatini imtihon tarzida namoyish etgan. Marosim oxirida ustoz mashg‘ulotlarning tugallanganini hammaga e’lon qilgan, shogird esa ustoziga minnatdorchilik va izzat-ehtirom ifodasi sifatida to‘n, do‘ppi kiydirib, belbog‘ bog‘lagan. Ustoz uni qutlab, mustaqil faoliyat ko‘rsatishga fotiha bergan.

Madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan bu marosim bir necha vazifani bajaradi. Birinchidan, u shogirdning yangi ijtimoiy maqomga — mustaqil sozanda maqomiga o‘tishini jamoa oldida rasmiylashtiradi, ya’ni o‘tish marosimi (insonning hayotdagi yangi holatga o‘tishini belgilovchi marosim) vazifasini o‘taydi. Ikkinchidan, atoqli ijrochilar va musiqa ixlosmandlarining ishtiroki shogird mahoratining kasbdoshlar tomonidan tan olinishini ta’minlaydi: bu o‘ziga xos jamoatchilik bahosidir. Uchinchidan, to‘n kiydirish, belbog‘ bog‘lash va fotiha berish kabi ramziy harakatlar ustoz va shogird o‘rtasidagi

ma’naviy rishtaning umrbod davom etishini ifodalaydi. Shu tariqa, “og‘zaki diplom” bilim va ko‘nikmani baholash bilan birga, ustozdan shogirdga o‘tib boruvchi zanjirning davom etishini ham ramziy tarzda mustahkamlaydi.

Dutor boshqa ko‘plab an’anaviy cholg‘ulardan farqli ravishda ayollar orasida ham keng tarqalgan bo‘lib, ayollar ijrochiligida meros uzatish o‘ziga xos shaklda kechgan. J. Rasultoyevning ma’lumotlariga ko‘ra, Farg‘ona vodiysida, shuningdek, Toshkent shahri va atrofida an’anaviy rasm bo‘lgan “xotin oshi”, “yuz ochdi”, “beshik to‘yi”, “chillagirazon” kabi to‘y marosimlarida ayol dutorchilar ijro etgan. Ayollarning dutor chalish malakasi dastavval kuylarni bevosita eshitish orqali qabul qilish, juda kam hollardagina maxsus shogirdlikka tushish orqali ro‘yobga chiqqan. Shogird tushgan xotin-qizlarga o‘z onalari, buvilari yoki boshqa yaqin qarindoshlari, kamdan-kam hollarda eng yaqin erkak qarindoshi ustozlik qilgan; ayol kishining begona erkak ustozligida dutor chalishni maxsus o‘rganishga haqqi bo‘lmagan.

Ayollar ta’limi kundalik turmush sharoitiga ham moslashgan. Rasultoyevning qayd etishicha, balog‘at yoshiga yetgan erkak kishi uyda bo‘lganda ayolning dutorda mashq qilishi odat tusiga kirmagan; ammo hamma balog‘at yoshidagi erkaklar juma namoziga ketganda, ya’ni juma kunlaridagina ayollarga dutor chalishni muntazam mashq qilish imkoniyatlari tug‘ilgan. Ayol ustoz o‘z qizi yoki nevarasiga ustozlik qilib, ular qobiliyatining namoyon bo‘lishiga o‘z mehnatini bag‘ishlagan. Ustozning shogirdga dastlabki an’anaviy o‘giti “dutorning ikki kokilini siypalab, ularni ikki qo‘l bilan o‘rib qo‘yish demakdir” degan obrazli jumla bilan boshlangan, bu suhbatlar esa shogirdning onasi yoki buvisi ko‘z oldida bo‘lib o‘tgan.

Ushbu ma’lumotlar ayollar dutor ijrochiligida ustoz-shogird an’anasi oila va qarindoshlik munosabatlari doirasida amal qilganini ko‘rsatadi. Bunda meros uzatish mexanizmi jamiyatdagi urf-odatlarga moslashib, oila ichida davom etadigan shaklga kirgan: ijro mahorati onadan qizga, buvidan nevaraga o‘tgan. “Kokil o‘rish” kabi ayollar hayotiga yaqin obrazlar orqali o‘rgatish esa dutorning xalq ongida xonadon, oila va ayol olami bilan bog‘liq ramziy ma’nolarga ega bo‘lishining sabablaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Ustoz-shogird an’anasi faqat ijrochilikda emas, balki cholg‘usozlikda ham merosni uzatishning asosiy shakli bo‘lib kelgan. Buning yorqin misoli — O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi usta Usmon Zufarovning hayot yo‘lidir. A. Liviyevning yozishicha, Usmon 12 yoshidan toshkentlik keksa usta Toshboy Sultonovdan o‘rgana boshlagan. Usta Usmonning o‘zi buni shunday eslagan: “Sakkiz yil dastyorlik qilganimdan so‘ng ustozim san’at sirlarini ocha boshladi, so‘ng uzoq vaqt unikida duradgorlik qildim, 15 yildan keyingina dutor va boshqa cholg‘u asboblarini yasay boshladim”. Keyinchalik u toshkentlik yog‘och o‘ymakor ustalari Abdumutal Tursunboyev va uning o‘g‘li Nabijondan naqqoshlik san’atini o‘rganib, dutor va tanburlarni bezashda nozik yog‘och naqsh o‘ymakorligi texnikasini birinchi bo‘lib qo‘llagan.

Ushbu misol dutorsozlikdagi shogirdlik uzoq muddatli va bosqichma-bosqich kechganini ko‘rsatadi: shogird avval dastyor sifatida ustaxona hayotiga kirishadi, so‘ng yordamchi ishlarni bajaradi va faqat ustoz ishonchini qozongach, kasb sirlarini o‘rgana boshlaydi. Usta Usmonning boshqa sohadagi ustalardan naqqoshlikni o‘rganishi esa

O.Matyoqubov ta’kidlagan “o‘zga maktab vakillari ijodidan bahramand bo‘lish” bosqichining hunarmandchilikdagi ko‘rinishi sifatida baholanishi mumkin. J. Rasultoyev ham dutor yasash uchun daraxtni quritishda har bir ustaning o‘ziga xos usullari mavjudligini qayd etadi . Bunday bilimlar yozma qo‘llanmalarda emas, balki ustaxona amaliyotida saqlanib, ustozdan shogirdga bevosita uzatilgan.

XX asrda ijtimoiy hayot va musiqa amaliyotidagi o‘zgarishlar an’anaviy uzatish mexanizmiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Avvalo, ovoz yozish texnikasi va ommaviy axborot vositalari shogirdga ustozdan tashqari manbalardan ham o‘rganish imkonini berdi. J.Rasultoyevning qayd etishicha, shogird radio, magnitofon, grammplastinkalar yordamida turli kuylarni har xil uslubiy namunalarda talqin etishni mustaqil mashq qiladi ; ustoz bisotidagi ijrochilik yo‘llarini o‘zlashtirgan shogirdlar to‘ylarda, televizor va radioda ko‘rib-eshitib yurgan boshqa mohir dutorchilarning tajribasini o‘rganib, o‘z mahoratini oshiradilar. Biroq bu ko‘p hollarda dutorchilar tomonidan o‘z ustozlarining chalish usullarini asta-sekin unutishga yoki boshqalardan o‘rganilgan usullarni o‘z holicha saqlab qolishga olib keladi. O.Matyoqubovning yozishicha, zamonamizning buyuk tanburchisi Turg‘un Alimatov ham dastlab o‘zlashtirgan cholg‘usi — dutorni radio va plastinkalarni mustaqil tinglab, o‘ziga yoqqan asarlarni eslab qolish yo‘li bilan o‘rgangan.

Ikkinchidan, ta’limning jamoaviy shakllari keng tarqaldi. Rasultoyevning ma’lumotlariga ko‘ra, maktab, klub va boshqa badiiy havaskorlik musiqiy to‘garaklari ishining jonlanishi bilan dutorchilar dastalari ham yuzaga kela boshlagan. Hozirgi O‘zbekistonda dasta tarkibidagi ijrochilikka ta’lim berish guruh-guruh bo‘lib o‘rganish usulida amalga oshiriladi va bu zamonaviy usul asrlar davomida tarkib topgan an’analarni aks ettirgan tarzda saqlab kelinmoqda. Muallifning fikricha, bunday dastalar xalq orasida yozuvsiz yashab kelayotgan musiqiy ijod durdonalarini avloddan avlodga yetkazishda ishonchli manbaga aylangan .

Bu o‘zgarishlar ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, ommaviy axborot vositalari va jamoaviy ta’lim merosning keng ommaga yetib borishi va uning hayotiyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, shaxsiy ishonch va uzoq muddatli bevosita muloqotga asoslangan an’anaviy munosabatlar o‘rnini ko‘proq ommaviy o‘rganish shakllari egallab bormoqda. Bu esa ustozdan shogirdga o‘tadigan ijro nozikliklari, mahalliy uslub xususiyatlari va kasb odobi kabi yozib bo‘lmaydigan bilimlarning bir qismi yo‘qolishi ehtimolini tug‘diradi. Shu sababli Konvensiya ruhida rasmiy ta’lim tizimi bilan bir qatorda norasmiy ta’lim shakli bo‘lgan ustoz-shogird an’anasini qo‘llab-quvvatlash, keksa ustozlar faoliyatini hujjatlashtirish va ularning tajribasini yosh avlodga yetkazish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, dutor san’atida ustoz-shogird an’anasi xalqimizning ko‘p asrlik musiqiy merosini asrab-avaylash, avloddan avlodga yetkazish va uning badiiy-estetik qadriyatlarini davom ettirishda muhim ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur an’ana nafaqat cholg‘u ijrochiligi texnikasini o‘rgatish, balki milliy musiqiy tafakkur, ijrochilik madaniyati, badiiy did, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar hamda ijodiy tajribani bevosita uzatishga xizmat qiluvchi yaxlit pedagogik va madaniy tizim hisoblanadi. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, dutor san’atidagi ustoz-shogird an’anasi nomoddiy madaniy merosni uzatishning asosiy mexanizmi bo‘lib, u ijro texnikasi va repertuar bilan birga kasb odobi, ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar va ramziy ma’nolarni ham yaxlit holda uzatadi.

Ikkinchidan, “ustoz” tushunchasi ma’naviy va amaliy jihatlarni birlashtirgan yuksak ijtimoiy maqomni anglatadi. Kasb sirlarining farzandlar va sadoqatli shogirdlarga tanlab uzatilishi ushbu an’anani shaxsiy ishonchga asoslangan ijtimoiy tizim sifatida tavsiflaydi.

Uchinchidan, an’anaviy shogirdlik qabul qilish, ko‘rish-eshitish orqali anglash, maxsus o‘rganish va “og‘zaki diplom” marosimi bilan yakunlanuvchi bosqichlardan iborat. Yakunlovchi marosim o‘tish marosimi, kasbiy e’tirof va ma’naviy rishtani mustahkamlash vazifalarini bajaradi.

To‘rtinchidan, ayollar ijrochiligida an’ana oila va qarindoshlik doirasida — onadan qizga, buvidan nevaraga uzatilgan, dutorsozlikda esa uzoq muddatli dastyorlik orqali amalga oshgan.

Beshinchidan, zamonaviy sharoitda ommaviy axborot vositalari va jamoaviy ta’lim shakllari an’anaviy mexanizmni o‘zgartirmoqda. Merosning hayotiyligini ta’minlash uchun ustoz-shogird an’anasini rasmiy ta’lim bilan uyg‘unlashtirish va ustozlar tajribasini hujjatlashtirish zarur. Keyingi tadqiqotlarda bu masalani keksa dutorchilar va dutorsoz ustalar bilan o‘tkaziladigan dala tadqiqotlari asosida chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq.

Dutor ijrochiligida ustoz-shogird munosabatlari og‘zaki an’ana, amaliy ko‘rsatma, tinglash, kuzatish, takrorlash va mustaqil ijodiy talqin kabi o‘zaro bog‘liq jarayonlar asosida shakllanadi. Aynan ushbu jarayonlar orqali dutor ijrochiligiga xos kuy tuzilishi, uslubiy xususiyatlar, ohangdorlik, ritmik qonuniyatlar, bezaklar va ijro mahorati avlodlar o‘rtasida uzviy davom ettiriladi. Bunda ustoz nafaqat bilim va ko‘nikmalarni yetkazuvchi, balki shogirdning ijodiy dunyoqarashi, musiqiy tafakkuri va milliy qadriyatlarga munosabatini shakllantiruvchi ma’naviy tarbiyachi vazifasini ham bajaradi.

Shuningdek, ustoz-shogird an’anasi dutor san’atining hududiy ijrochilik maktablariga xos badiiy-uslubiy xususiyatlarni saqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Turli ijrochilik an’analarining o‘ziga xosligi, kuylarni talqin etish usullari va ijro mahoratiga doir tajribalar bevosita ustozdan shogirdga o‘tishi natijasida milliy musiqiy merosning rang-barangligi va tarixiy davomiyligi ta’minlanadi. Bu esa dutor san’atini faqat musiqiy ijrochilik shakli sifatida emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari va madaniy o‘zligini ifodalovchi nomoddiy madaniy meros namunasi sifatida baholash imkonini beradi.

Globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi sharoitda dutor san’atidagi an’anaviy bilim va ko‘nikmalarni uzatish mexanizmlarini zamonaviy ta’lim jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Xususan, ustoz-shogird maktablarining ilg‘or tajribalarini ilmiy jihatdan o‘rganish, yetuk dutor ijrochilarining ijodiy merosini audio va video shakllarda hujjatlashtirish, hududiy ijrochilik uslublarining raqamli arxivlarini yaratish hamda ta’lim muassasalarida an’anaviy ijrochilik metodlarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Biroq raqamli vositalar bevosita ustoz-shogird

muloqotining o‘rnini to‘liq bosa olmaydi, balki ushbu an’anani saqlash va ommalashtirishga xizmat qiluvchi qo‘shimcha imkoniyat sifatida qaralishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, dutor san’atida ustoz-shogird an’anasi nomoddiy madaniy merosni uzatishning tarixan shakllangan, badiiy-pedagogik va ijtimoiy-madaniy jihatdan samarali mexanizmi sifatida e’tirof etilishi mumkin. Uning barqaror davomiyligini ta’minlash, an’anaviy ijrochilik maktablarini qo‘llab-quvvatlash, ustozlar tajribasini ilmiy asosda tizimlashtirish va yosh avlodning milliy musiqa san’atiga qiziqishini kuchaytirish dutor ijrochiligi merosini kelajak avlodlarga yetkazishning muhim shartlaridandir.

Demak, dutor san’atining istiqboldagi rivoji an’anaviy ustoz-shogird munosabatlarini saqlab qolish, ularning zamonaviy musiqiy ta’lim tizimidagi o‘rnini mustahkamlash hamda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy faoliyatni izchil davom ettirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu jarayon milliy cholg‘u ijrochiligi an’analarining hayotiyligini ta’minlash bilan bir qatorda, xalqimizning boy musiqiy merosini xalqaro madaniy makonda targ‘ib etishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. – Paris: UNESCO, 2003.

2. Hudoyqulov Y.A. Madaniyatshunoslik: o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2015.

3. Liviyev A. O‘zbek milliy cholg‘usozlik tarixi. – Toshkent: Bilim, 2005. – 160 b.

4. Mo‘minova Z.I. Toshkent dutor ijrochilik an’analari: san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 46 b.

5. Матёқубов О. Мақомот. – Тошкент: Мусиқа, 2004. – 400 б.

6. Расулгоев Ж. Ўзбек дутор ижрочилиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 112 б.

7. Рахимов Б.М. Хоразм дутор мақомлари: санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент: Ўзбекистон давлат консерваторияси, 2021. – 143 б.